O‘RXUN-ENASOY BITIKLARIDAGI QO‘SHIN TUZILISHIGA OID ISTILOHLAR XUSUSIDA

Dustmurodov Ma’rufjon Mansur o‘g‘li
TIPI dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.13777369

ANNOTATSIYA

Jahon tamaddunida muhim o‘rin tutgan turkiy xalq va elatlarning o‘tmishi hamda bugunini o‘zida aks ettirgan har qanday moddiy va ma’naviy yodgorliklar nafaqat turkiy xalqlar, qolaversa, butun dunyo ilm egalarini e’tiborini o‘ziga qaratib kelgan. Qadimgi turk bitiktoshlarida qayd etilgan xoqonlikning boshqaruv tizimiga doir istilohlarning salmoqli ulushini harbiy unvon, lavozim va mansablarni ifodalovchi terminlar tashkil etadi. Bulardan bitiklarda eng faol qo‘llanilgan istilohlar qo‘shin tuzilishi va turlarini ifodalovchi terminlardir.

KALIT SO‘ZLAR

Turk xoqonligi, harbiy terminlar, O‘rxun-Yenisey bitigtoshlari, qo‘shin tuzilishi.

АННОТАЦИЯ

Любые материальные и духовные памятники, отражающие прошлое и настоящее тюркского народа и народов, занявшие важное место в мировой цивилизации, привлекают внимание не только тюркских народов, но и народов всего мира. Немалую часть изменений, связанных с системой управления каганатом, зафиксированных в древнетюркских надписях, составляют термины, обозначающие воинские звания, должности и должности. Из них наиболее активно употребляемыми в надписях являются термины, выражающие структуру и виды армии.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Тюркский каганство, военные термины, Орхуно-Енисейские вехи, структура армии.

ABSTRACT

Any material and spiritual monuments reflecting the past and present of the Turkic people and peoples, which have taken an important place in the world civilization, have attracted the attention of not only the Turkic peoples, but also the people of the whole world.

KEY WORDS

Turkic khaganate, military terms, Orkhun-Yenisei inscriptions, army structure.

A considerable part of the changes related to the management system of the Khaganate recorded in the ancient Turkic inscriptions are made up of terms representing military titles, positions and positions. Of these, the most actively used terms in the inscriptions are the terms expressing the structure and types of the army.

Birinchi va Ikkinchi turk xoqonliqlari (=Ko‘kturk xoqonliqlari) davri (552–744 yillar) turkiy xalqlar davlatchiligi tarixidagi muhim bosqich bo‘lib, o‘z davrida mintaqada yetakchi kuch sifatida qo‘shni sulolalar, qolaversa, keyingi turkiy va turkiy bo‘lmagan sulolalar tarixida muhim o‘rin egallaydi. Bu davrda xoqonliqning davlat boshqaruv tizimi va harbiy kuch-qudrati yuqori darajada edi. O‘sha ulug‘ ko‘tarilishlar, yuksalishlar davridan epigrafik yodgorliklar – xoqonlar, davlat arboblari, sarkardalar xotirasiga bag‘ishlangan qabrtosh yozuvlari saqlangan. Ularda milliy qahramonlarning davlat mustaqilligi, el-yurt tinchligi yo‘lida olib borgan janglari, ko‘rsatgan jasorati, butun bir xoqonliqning tarixi bitigli. Bitiglar turk davlatining harbiy tizimi, el erki yo‘lida olib borilgan janglar, tarixning o‘chmas sahifalaridan hikoya qiladi. Yana bir jihati, ushbu bitiglar, tarix kitoblari bo‘lishi bilar bir qatorda, qadimgi turkiy yozma adabiyotining ajoyib asarlari, qadimgi turkiy yozma adabiy tilning bebaho yodgorliklaridir.

Qadimgi turk bitiktoshlarida qayd etilgan xoqonlikning harbiy tizimiga oid istilohlarning salmoqli ulushini qo‘shin tuzilishi va turlarini ifodalovchi terminlar tashkil etadi. Ushbu mavzuiy guruh bitigtoshlar matnida faol ishlatilgan *atlïγ* – “otliq, suvoriy”, *ilki sü* – “avangard, ilg‘or qo‘shin”, *yadaγ* – “yaydoq, yayov, piyoda”, *yolaγčï* – “yo‘l boshlovchi (qism)”, *yaγïčï* – “jangchi, askar”, *är* – “jangchi, oddiy askar”, *sü* – “1. askar, jangchi; 2. qo‘shin, lashkar; 3. safar, yurish; 4. jang, urush”, *ordu* – “o‘rdu: I. qo‘shin; II. harbiy qarorgoh; qal’a; shahar”, *sïŋar* – “qo‘shinning ikki qanotidan biri”, shuningdek, *atlïγ sü* – “otliq qo‘shin yoki askar”, *äkin sü* – “rezerv”, *qaγan süsi* – “xoqon qo‘shini”, *uluγ sü* – “katta qo‘shin”, *yadaγ sü* – “piyoda qo‘shin”, *čärig* – “qo‘shin, askar” kabi termin va termin-birikmalarni o‘z ichiga oladi.

Bitiglardagi semantik-funksional jihatdan juda yaqin terminlar sirasiga *yolaγčï* – “yo‘l boshlovchi (qism)” va *yärči* – “yo‘lchi, yo‘l ko‘rsatuvchi” istilohlari kiradi. Birinchi termin runik matnlardan faqat Bilga xoqon bitigida tilga olingan: *“yolaγčï ... käčänkä tägi* – yo‘lboshlovchi ... Kechengacha” (BX, j). E.Aydin *yolaγčï* so‘zini “yetakchi qism (bo‘linma)” deb ta’riflaydi[1]. “DLTda ushbu so‘zga shakliy va semantik jihatdan o‘xshash *yorïγčï* so‘zi borki, Mahmud Koshg‘ariy uni “qayn,

[1] Erhan A. Orhon Yazıtları. – Konya: Kömen Yay, 2012. – S.190.

qarindoshlar orasida maktub bilan borib keladigan elchi" deb tushuntiradi"[2]. Ushbu so‘z hozirda turkman tilida saqlangan.

Obidalarda eng faol qo‘llangan terminlardan biri *sü* – "askar, jangchi; qo‘shin, lashkar"dir. *sü* termini O‘rxun-Yenisey bitiglaridan bir qancha o‘rinlarda uchraydi: "*Tabγač süsi bar ärmiš* – Tabg‘ach(ning) qo‘shini bor ekan" (To‘n, 30); *"Oγuz tapa sülädim, ilki sü tašïqmïš ärti* – O‘g‘uz tomonga lashkar tortdim, birinchi lashkar – ilg‘or qism yo‘lga chiqqan edi" (BX, 32). "*sü* xuncha va runik matnlarda cho‘ziqroq unli tovush bilan" (ДТС, 547-548), ba’zi "uyg‘ur matnlarida *suu* va *so* shakllarda ham uchraydi"[3]. Qadimgi matnlardagi *sü* istilohining o‘rnini o‘rta asrlarga kelib *čärig* egalladi. "*Yüräksiz kišilär čärig artatur* – Qo‘rqoq kishilar lashkarni buzadilar" (QBK, 121_{13}). Runik matnlarda "askar, jangchi" ma’nosida *sü, är, äräп* istilohlari uchraydi. *sü* va *čärig* istilohlari hozirgi o‘zbek harbiy terminologiyasida keng qo‘llanuvchi *qo‘shin, armiya* terminlari anglatadigan ma’noni ifodalagan. DLTda istiloh bilan bog‘liq quyidagi leksemalar mavjud: "*Otaγqa öpkäläb sügä sözlämädük* – chodirdagi hamrohlaridan xafa bo‘lib, so‘ng askarlari bilan so‘zlashmadi"; *"Sü käldi yär yapa* – yer yuzini bosib qo‘shin[4] keldi" (DLT, III, 226). *sülä-* – "qo‘shin tortmoq" derivati ham o‘z faolligini saqlab qolgan: *"Oγrap qalï kälsä saŋa qaršu sülä* – dushman sen tomon kelsa, yurishga chiq" (DLT, III, 271). Ushbu istiloh qoraxoniylar davrida ham faol qo‘llanib, hozirgi kunda faqat Turkiya turkchasida harbiy termin sifatida qo‘llanadi. S.Eker *sü* termini turkiy manbalarda to‘rt ma’noni ifodalaganini ta’kidlaydi: "1. *askar;* 2. *qo‘shin;* 3. *birlik, bo‘linma; 4. harbiy safar*"[5]. Bizningcha, *sü* polisemik istilohi anglatgan ma’nolarni guruhga ajratishda yanada aniqlik kiritish lozim. Ya’ni, 1. *askar;* 2. *qo‘shin;* 3. *safar, yurish (harbiy);* 4. *jang, urush.* Zotan, bitiglarda *"qan sükä barmiš", "är sükä barmiš"* shaklidagi jumlalar borki, bu parchalarda *sü*ning ikki tushunchani anglatgani ko‘rinib turibdi.

sü istilohi ifodalagan semalarning bitiglarda namoyon bo‘lishi:

1. *askar, jangchi* ma’nosi: "*yïraya Oγuzda äki üč biŋ sümüz, kältäčimiz bar-mu-nä!?* – shimolda O‘g‘uzdan (himoyalanish uchun) ikki-uch ming askarimiz (bor)" (To‘n, 14); *"bir tumän artuq yäti biŋ süg ilki kun kün ölürtüm* – o‘n yetti ming askari[6]ni birinchi kun o‘ldirdim" (BX_{Xa}, 1), *"üč tümän süg ölürtüm* – o‘ttiz ming askarni o‘ldirdim" (BX_{Xa}, 8). Shuningdek,*"ol sü anta ölti* – u askar u yerda halok bo‘ldi" parchasida ham *sü* istilohi *askar* ma’nosidadir. Termin DLTda ham bir

[2] *Ercilasun A. Askerlikte Onlu Sisteme Türklerin Katkıları // Second International Congress on Turkic civilization. – Bishkek, 2005. – S. 151-158.*

[3] *Clauson G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. – Oxford, 1972 – P. 781.*

[4] Asarda *askar*.

[5] *Süer E. Sü ve Süile yapılan tarihi askeri terimler üzerine disiplinlerarası bir inceleme. Türkbilig, 2006. – S. 109.*

[6] *Bu parchada sü leksemasi G‘.Abdurahmonov , A.Rustamovlar tomonidan lashkar – qo‘shin deb tabdil qilingan. Suer Eker bu o‘rinda ushbu leksemani jangchi deb tabdil qilgan (Süer Eker. Sü ve Süile yapılan... – S. 112, 109). Bizningcha ham bu yerda ushbu so‘zni askar, jangchi deb tabdil qilish maqbulroq.*

o‘rinda “askar”, boshqa o‘rinda “qo‘shin” ma’nodasida kelgan. “*Otayqa öpkäläb sügä sözlämädük* – chodirdagi hamrohlaridan xafa bo‘lib, so‘ng askarlari bilan so‘zlashmadi”; *“Sü käldi yär yapa* – yer yuzini bosib qo‘shin keldi” (DLT, III, 226).

2. *qo‘shin, lashkar* ma’nosi: “*Tabyač süsi bar ärmiš* – Tabg‘ach lashkari (ham) bor ekan*”* (To‘n, 30)*; “Oyuz tapa sülädim, ilki sü tašïqmiš ärti, äkin sü äbdä ärti. Üč oyuz süsi basa kälti* – O‘g‘uz tomonga lashkar tortdim, birinchi lashkar yo‘lga chiqqan edi, ikkinchi lashkar qarorgohda edi, uch o‘g‘uz lashkarib bosib keldi” (BX, 32). Ushbu ma’nodagi istiloh “Qutadg‘u bilig”da ham aksini topgan:*“On iki miŋ är sü üküš sü tämiš”* – O‘n ikki ming (kishilik) qo‘shin (keragidan) ko‘p qo‘shin demish”[7].

3. *safar, yurish* ma’nosi: *“qan sükä barmïš, yayïyï sänčmiš, özi süsi ögirü säbinü ordusïnäru kälir*[8] – Xon safar (jang)ga otlandi, dushmanni yengdi. O‘zi, qo‘shini sevinib, xursandchilik bilan o‘rdusi – qarorgohiga keldi*”. “är sükä barmiš, yolta atï ärmiš* – askar safarga chiqdi, yo‘lda oti horidi, charchadi*”* (IB, 55).

4. *jang, urush* ma’nosi: “Irq bitigi” (“Ta’birnoma”)dagi bir parchada *sü* istilohi *yer* leksemasi bilan birikib, “janggoh, jang maydoni” ma’nosini ifodalagan: *“sü yirintä ärklig sabčï törütmiš* – jang maydonida kuchli bir xabarchi o‘rtaga chiqar*”* (IB, 55). Manbalardan faqatgina “Ibn Muhanna” lug‘atida qayd etilgan “jangdosh, jangdagi yelkadosh jangchilar” ma’nosidagi *südäš*[9] istilohining asosini tashkil etgan *sü* aynan “jang, urush” ma’nosidadir.

Manbalarga ko‘ra “*sü* dastavval turkiylarning faqatgina piyoda jangchilariga nisbatan qo‘llanilgan”[10]. Bitiglarda *sü* istilohining faol qo‘llanishda bo‘lganini uning ishtirokida yasalgan derivatlar tasdiqlaydi. “Qo‘shinli, qo‘shinga ega, qo‘shini bor” ma’noli *sülüg* esa qadimgi turkiy so‘zlikda izohlanadi: “*kalïn sülüg ulug küčlüglär* – gavjum qo‘shinli, ulkan kuchlilar” (ДТС, 548). Shuningdek, *sü* istilohi Qutbda ham to‘rt o‘rinda “qo‘shin” ma’nosida tilga olinadi: “*Torildi ersa andin jahl susi, Anga bilgurdi sirlar yaysusi”*[11]. Ushbu istiloh hozirgi davrda asosan turk tilida ishlatilib, ushbu tilda *sü*dan yasalgan *sübäy* – “askarlar boshlig‘i”, *astsübäy* – “kursant”, *üstsübay* – “katta ofitser” kabi harbiy unvonlar mavjud. Xullas, qadimgi turkiy tilda asosan “qo‘shin, askar” ma’nolarida *sü* istilohidan foydalanilgan bo‘lib, ushbu so‘z keyingi yuzyilliklarda bir qancha leksemalarning shakllanishiga asos bo‘lgan. Istiloh eski o‘zbek adabiy tili davrigacha qo‘llangan.

---

[7] *Rahmeti A.R.* Yusuf Has Hacip – Kutadgu Bilig I... – *S. 2334.*

[8] *Tekin T. Makaleler LI (Yayıma Hazırlayanlar: E. Yılmaz, N. Demir). – Ankara: Öncü Kitap, – 2004.*

[9] *Battal A. İbni-Mühenna Lûgati (Istanbul nüshasının Türkçe bölüğünün endeksidir). – Ankara: TDK Yayınları, 1938. – S. 64.*

[10] *Кызласов И.Л. Материалы к ранней истории тюрков. I. Древнейшие свидетельства об армии. Российская археология. – М.: 1996. – С. 77.*

[11] *Қутб. Хусрав ва Ширин. Ўзбек муттоз адабиёти намуналари. 11-жилд. Тузувчи Н.Раҳмонов. – Т.: Фан, 2007. – Б. 14, 30.*

“Jangchi, askar” ma’nosini ifodalagan *är* tub leksemasi asosida voqelangan *ärän* derivatining manbalarda “askarlar, qo‘shin” ma’nosini ifodalashi Ko‘k turk, Uyg‘ur va Yenisey yozuvlarida aks etgan: *“maŋa Lisuŋ Tay säŋün bašadu bäš yüz ärin kälti* – Menga Lisun Tay sangun boshlab besh yuz er bilan keldi*”* (BX, 10). H.Dadaboyevga ko‘ra *är* leksemasi ilk bor Kul Tegin bitigtoshi, Turfon va Yenisey yodnomalari matnida qo‘llangan[12]. Ko‘k turk bitiglarda *är* leksemasidan ko‘plik yasovchi *-t* affiksi bilan hosil qilingan *ärät* istilohi “askarlar, jangchilar” ma’nosida qo‘llanilgan. Bitigtoshlarda *är* leksemasi “er, er kishi, askar, bahodir” ma’nolarida qo‘llangan. “Devonu lug‘otit-turk”da *är* asosida shakllangan va harbiy ma’no ifodalagan quyidagi yasalmalar qayd etiladi: *ärän* [13] – I. erlar, erkaklar; bahodirlar (DLT, I, 71; 249; 105) II. askar (DLT, I, 165); *ärläš-* – mardlikda bahslashmoq (DLT, I, 242, 16); *ärlik* – erlik, mard (DLT, I, 129); *ärkäkländi* – 3. botirlandi (DLT, I, 306). Bitiglarda, shuningdek, “jangchi” ma’nosi *uruŋu* so‘zi orqali ham anglashilgan.

“Otliq, suvoriy” ma’nosini anglatgan *atlïγ* termini Ko‘kturk va Uyg‘ur yozuvlarida qayd etiladi. To‘nyuquq bitigida ushbu yasalma “otliq qo‘shin, suvoriylar” ma’nosida ishlatilgan: *“äki ülügi atlïγ ärti* – ikki ulug‘i otliq edi*”* (To‘n, 4). Jumladan, Bilga xoqon bitigida *atlïγ* leksemasi *sü* istilohi bilan birikib, “otliq lashkar”ni anglatgan: *“Tabγač atlïγ süsi bir tumän artuqï yäti biŋ süg ilki kün ölürtüm…* – Tabg‘achning otliq lashkari(ni) o‘n yetti ming(lik) lashkarini birinchi kun o‘ldirdim” (BX, 1). J.Kloson *atlïγ* terminini “otliq, suvoriy va otli bo‘linma” deya izohlaydi[14]. Ma’lumki, otliq qo‘shinlar Turk xoqonligi armiyasining asosini tashkil etgan. H.Dadaboyevning ta’kidlashicha, “Xoqonlikdagi sinfiy-sulolaviy tabaqalanish qo‘shin tuzilishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Chunonchi, cherigning zarbdor qismini tashkil etgan otliqlar turk zodagonlari va ularning farzandlaridan tuzilgan. Og‘ir qurolli otliq askarlar jangda hal qiluvchi rol o‘ynagan”[15]. Bu davr boshqa turk davlatlarida ham qo‘shinning otliq qismi yoki bo‘linmasi *atlïγ* istilohi bilan yuritilgan. Eski o‘zbek adabiy tilida sof turkiy istilohga ma’nodosh bo‘lmish forsiycha *suvoriy* o‘zlashmasining qo‘llangani kuzatiladi. Shuningdek, Mo‘yun Cho‘r bitigida *atlïlïγ* istilohi ham mavjudki, u ham “otliq (askar yoki qo‘shin); ot ustidagi” ma’nolarini anglatgan: *“atlïlïγ ... Täŋri: tuta bärti* – otliq … Tangri tutaverdi” (MCh, 14).

---

[12] *Дадабоев Ҳ. “Девону луғотит-турк”даги эркак жинсини ифодаловчи лексемалар. 2014. – Б. 6.*

[13] *Mahmud Koshg‘ariy ushbu so‘zga alohida to‘xtalib, uning är so‘zining ko‘plik shakli ekanligi, lekin bu hol kam uchrashi va qoidaga xilofligi, ko‘plik qo‘shimchasining, aslida -lar ekanligini ta’kidlaydi (DLT, I, 170). Bu so‘zning “Devon”da besh joyda qayd etilishi yuqoridagi fikrni ma’lum darajada tasdiqlaydi. (Дадабоев Ҳ. “Девону луғотит-турк”даги... – Б. 7.)*

[14] *Clauson G. An Etymological Dictionary ... – P. 55.*

[15] *Dadaboyev H., Yodgorov H. O‘zbek harbiy terminologiyasi. O‘quv qo‘llanma – T.: Sahhof, 2021. – B. 58.*

Bitiglarda *yaγïčï* – “jangchi, askar” termini qo‘llangan bo‘lib, uning ma’noviy-vazifaviy jihatlari e’tiborga molik. Bu istiloh Yenisey matnlarda uchraydi: “*qadïr yaγïda yaγïčï bän* – shiddatli janglarda jangchiman” (Y, 44/2). J.Kloson so‘zni dushman anglamidagi *yaγï* so‘zidan shakllanganini aytib, *yaγïčï* ning “dushmanga qarshi jang qiluvchi” ma’nosini anglatishini yozadi[16]. Leksema ДТСda “jangchi, harbiy” sifatida berilgan (ДТС, 238). M.Erdal esa so‘zga “askarlik kasbi” ma’nosini beradi[17]. Ushbu termin *yaγïčï* – “jangovar, bahodir” shakl va ma’nolarida “Qutadg‘u bilig”da ham mavjud: “*Nägü tär äšitgil yaγïčï kür är* – Jangovar, mard kishi nima deydi, eshitgin” (QBN, 154_{12}).

Bitigtoshlarda faol qo‘llangan istilohlardan biri *ordu*dir. *ordu* harbiy termin sifatida tarixiy hujjatlarda “qo‘shin, lashkar”, shuningdek, “hukmdor qarorgohi; qo‘shin qarorgohi” ma’nolarini ifodalaydi. Kul Tegin bitigidagi quyidagi gaplarda “harbiy qarorgoh” ma’nosida kelgan: *“oγuz yaγï orduγ basdï* – o‘g‘uz dushman o‘rduni bosdi” (KT, 8); *“toquz äräη säηčdï, orduγ bärmädi* – to‘qqiz erni sanchdi (nobud qildi) o‘rduni bermadi” (To‘n, 9). “Irq bitigi” (“Ta’birnoma”)dagi parchada ham ushbu istiloh “lashkargoh” ma’nosida ishlatilgan: *“Qan sükä barmiš, yaγïγ säηčmiš, köčürü konturu kälir, özi süsi ögirü säbinü ordusïŋaru kälir* – Xon safar (jan)gga otlandi, dushmanni yengdi, o‘ziga xos keldi. O‘zi, qo‘shini sevinib, xursandchilik bilan o‘rdusi – qarorgohiga keldi” (IB, 34).

Turk xoqonligi qo‘shini jangovar tartibi an’anaviy besh qismdan iborat bo‘lgan. Cherigning o‘ng va chap qanotidan biri *sïŋar* istilohi bilan atalgan. Ushbu istiloh To‘nyuquq va Bilga xoqon bitiglarida bir qancha o‘rinlarda qo‘llangan: *“Üč oγuz süsi basa kälti, ... sïŋar süsi äbig barqïγ yulγalï bardï, sïŋar süsi süŋüšgäli kälti* – uch og‘uz lashkarib bosib keldi ... (Bir) yon lashkari uyni, hovli(lar)ni bo‘shatgani ketdi, (bir) yon lashkari jang qilgali keldi” (BX, 32); *“sïŋar: Šïp bašïŋa: tägi: čärig itdim* – yon Ship boshigacha qo‘shin tortdim*”* (MCh, 15). *sïŋar* “Devonu lug‘otit-turk”da “har narsaning yoni, tomoni, tarafi” ma’nosida qayd etilgan (DLT, III, 386). Ta’kidlash joizki, istilohning “Devonu lug‘otit-turk”da keltirilgan ma’nosi qadimgi turkiy tilda ham mavjud bo‘lgan (ДТС, 304).

“Cherig yurishga otlanganda uning oldida harakat qiluvchi qism bitigtoshlar tilida *ilki sü* va *yäzäk* istilohlari bilan ifodalangan”[18]. *ilki sü* (*ilki* – birinchi, yetakchi; *sü* – qo‘shin, askar) termin-birikmasi Bilga xoqon bitigida ko‘zga tashlanadi: *“Oγuz tapa sülädim, ilki sü tašïqmiš ärti, äkin sü äbdä ärti. Üč oγuz süsi basa kälti* – O‘g‘uz tomonga lashkar tortdim, birinchi lashkar yo‘lga chiqqan edi, ikkinchi lashkar uyda edi, uch og‘uz lashkarib bosib keldi” (BX, 32). Manbalarda ta’kidlanishicha,

[16] *Clauson G.* An Etymological Dictionary ... – *P. 986.*
[17] *Erdal M.* Old Turkic Word Formation. A Functional Approach to the Lexicon. *Volume: I. – Wiesbaden, 1991. – P. 113.*
[18] *Dadaboyev H., Yodgorov H. O‘zbek harbiy ... – B. 60.*

“xoqonlikda o‘troq aholidan qo‘shinga safarbar qilingan “piyoda, piyoda qo‘shin” *yadaγ, yadaγ sü* istilohlari bilan ifodalangan. Piyoda askarlarning soni otliqlarga nisbatan bir necha marta kam bo‘lgan va ular asosan qal’a, qo‘rg‘on, hisor yoxud dushmanning mudofaa istehkomlarini qo‘lga kiritish, tog‘li hududlarda jangovar harakatlar olib borishga jalb etilgan”[19]. *“yadaγ süsin äkinti kun* ... Yayov lashkarini ikkinchi kun ...” (BX, 1); *“bir ülügi yadag ärti* – bir qismi piyoda edi” (To‘n, 4). “Qutadg‘u bilig”da *yadaγlïγ* istilohi “piyoda askar, piyoda qo‘shin” ma’nosini anglatgan: *“Yadaγlïγ yaγïqa tämür qalqan ät* – Dushmanning piyoda askarlariga temir qalqon hozirla” (QBH, 122_{28}). Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida *yadaγ* leksemasi ayni shaklda “yayov” ma’nosida qayd etilgan (DLT, III, 35). *“Oγuz tapa sülädim, ilki sü tašïqmïš ärti, äkin sü äbdä ärti”* (BX, 32) gapidagi *äkin sü* birikmasi esa zaxira qo‘shin (rezerv)ni anglatishga yo‘naltirigan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, *qaγan* oliy bosh qo‘mondon sifatida o‘ziga tegishli xos askarlari boshchiligida yurishlarda ko‘p marta qatnashgan. Hukmdorga bevosita bo‘ysungan cherig *qaγan süsi* birikmasi bilan yuritilgan. *“qaŋïm qaγan süsi böri-täg ärmiš* – otam xoqonning lashkari bo‘riday ekan” (KT, 12). Bir *tümän* (o‘n ming)dan ortiq askarga ega qo‘shin *uluγ sü* birikma termini bilan nomlangani bitiglar matnida voqelangan: *“Tabγač tapa uluγ sü äki yägir (mi)* – Tabg‘ach tomonga katta lashkar (bilan) o‘n ikki ...” (KT, 28).

Bitigtoshlarda “qo‘shin, lashkar” ma’nolarida tilga olingan istiloh *čärig*dir. Ushbu harbiy istiloh tarixiy manbadalardan ilk bor Kuli Cho‘r va Mo‘yun Cho‘r matnlarida ko‘zga tashlanadi: *“Süŋüš bolsar čärig itär ärti* – Urush bo‘lganda qo‘shin (u) yetakchilik qildi*”* (KCh, 9); *“Šïp bašïŋa: tägi: čärig itdim* – Ship boshigacha qo‘shin tortdim” (MCh, 15). H.Eren “*čärig* qadimgi turkiy tilda “askar”, *čäri bašï* (yoki cherig begi) “lashkar boshi” ma’nosini anglatishini, hozirgi kunda esa *čäri bašï* “lo‘lilar boshlig‘i” ma’nosini anglatishini yozadi. Tadqiqotchi *čärig* istilohining dastlabki ma’nosi “askar yoki qo‘shin” ekanligini ta’kidlab, u ham M.Ryasenen kabi so‘zning o‘zagini “jang qilmoq” ma’nosidagi *čär* asosiga bog‘laydi”[20]. J.Kloson esa istilohni “jangdagi qarama-qarshi tomon (chiziq)lar” ma’nosida izohlaydi.

Istiloh “Qutadg‘u bilig”da tilga olinadi: *“Yüräksiz kišilär čärig artatur* – Qo‘rqoq kishilar lashkarni buzadilar” (QBK, 121_{13}). “Bitiglarda alohida qo‘llangan *sü* va *čärig* istilohlari Qoraxoniylar davri hamda uyg‘urcha matnlarda *sü čärig* va *čärig sü* juft so‘zi shaklida qo‘llanadi”[21]. Ushbu istiloh keying davr turkiy sulolalar harbiy tizimida ham faol ishlatilgan. Jumladan, “Buxoro xonligida nomuntazam qo‘shin *qora čärik* istilohi bilan yuritilgan. *čärik* asosan, otliq, qisman

[19] *O‘sha asar. – B. 59.*
[20] *Eren H. Türk Dilinin Etimolojik Sözlüğü. 1. Baskı. – Ankara, 1999. – S. 86-87.*
[21] *Rahmeti A.R.* Yusuf Has Hacip – Kutadgu Bilig I ... – *S. 38.*

piyoda qismlardan tashkil topgan. *čärik* o‘nlik, yuzlik, minglik va tumanlarga taqsimlangan va ularga *o‘nbegi, yuzbegi, mingbegi* va *tumanbegi*lar sardorlik qilgan. Usmoniylar davrida jangda asirga olingan va maxsus tarbiyalangan nasroniy o‘smirlardan tuzilgan alohida muntazam harbiy qism tarixda *yäni čäri* (yanichar) – “yangi qo‘shin” nomi bilan shuhrat topgan”[22]. Shuningdek, mo‘g‘ulchada *çärig,* mojor (vengr)chada *säreg,* serbchada *šäreg,* polyak tilida *szäreg*, ruminchada *şireág,* forsiychada *çarįk*, gurju tilida *ĵari*, ruschada *серенга* so‘zlari mavjud bo‘lib, umumiy ma’noda “harbiy tuzilma”ni anglatadi. Qo‘miq tilida *cheriv* istilohidan ism yasalishi ham faoldir: *Cherivmirza*, *Cherivxan Cheruvxan*[23]. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (turkiy so‘zlar)da bu istiloh mavjud emas. Aytish lozimki, bitigtoshlarga ko‘ra “cherig, qo‘shin yig‘il(moq)” ma’nosini ifodalashda “yig‘moq, to‘plamoq” semasini anglatgan *tär-* so‘zidan yasalgan *täril-* istilohi qo‘llangan: *yazïda on tümän sü tärilti* – Yaris dashtida o‘n tuman lashkar yig‘ildi*”* (To‘n, 36). *täril-* derivati anglatgan ma’no eski turkiy tilda *yïγïl-* leksemasi bilan ifodalangan (ДТС, 265).

Hududiy jihatdan keng mintaqalarni o‘z qo‘l ostiga birlashtirishda turklarning harbiy ishdagi mahorati, bilimi, jang san’ati borasidagi puxta tayyorgarligi va intizomli qo‘shinga egaligi yetakchi rol o‘ynagan bo‘lsa, zabt etilgan bepoyon hududlar, turmush tarzi turlicha qabilalar va urug‘lar uyushmasi, tobe hukmdorlarni itoatda tutib turish ehtiyoji ularning oldiga qat’iy boshqaruv tizimini tashkil qilish masalasini ko‘ndalang qo‘ydi. Ushbu vazifa xoqonlik quruvchilari va boshqaruvchilari tomonidan yuksak darajada amalga oshirilgan bo‘lib, bu jihat xoqonlikda o‘ziga xos harbiy boshqaruv hamda idora usulining barcha jabhalarini qamrab olgan unvonlar tizimini shakllantira olganliklarida o‘z tasdig‘ini topdi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, qadimgi turklarda qo‘shin tuzilishi vazifa hamda miqdor jihatidan turlarga ajratilgan. Xoqonlik qo‘shini, avvalo, harbiy amaliyotdagi vazifasiga ko‘ra yo‘l boshlovchi qism, avangard – ilg‘or qism, otliq qo‘shin, suvoriy, piyoda qo‘shin, qo‘shinning ikki qanoti va zaxira kabi qismlardan iborat bo‘lgan. Bu qismlar o‘z ichida sanoq tizimiga asoslangan holda yuz, besh yuz, ming, tuman (o‘n ming) jangchidan iborat tarkibdagi bo‘linmalardan iborat bo‘lgan.

1. Shartli qisqartmalar

2. ANATIL – Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati
3. BX – Bilga xoqon bitigtoshi
4. DLT – Devonu lug‘otit-turk
5. IB – Irq bitigi (Ta’birnoma)

[22] *Bu uchub qarang:* https://uz.wikipedia.org/wiki/Cherik

[23] *Бамматов Б.Г. Гьажиагьматов Н.Э. Кумыкско-русский словарь. – Магьачкъала, 2011. – С. 340-341.*

6. KT – Kul Tegin bitigtoshi

7. QBH, QBK – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” S. Qohira nusxasi (Dāru’l-kutub va’l-vasāiki’l-kavmiyya tasavvuf turki 168. nr).

8. QBN – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” B. Namangan nusxasi (Farg‘ona) (TDSHI qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharq qo‘lyozmalari markazi 1809).

9. QBV – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” A. Vena nusxasi (Wien, ÖNB, Cod A.F.13).

10. s. – sug‘dcha
11. sans. – sanskritcha
12. xit. – xitoycha
13. Ta – Taryat bitigtoshi
14. ПДП – Памятники древнетюркской письменности
15. СТ – Советская тюркология
16. ЭСТЯ – Этимологический словарь тюркских языков